

ABDULLA QAHHOR IJODINI INTERFAOL METODLARDA O'QITISH

Zakirova Maqsuda Atayevna*UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Qahhor ijodini turli xil interfaol metodlarda o`qitish haqida.

Kalit so'zlar: *Abdulla Qahhor, "Bemor", "San'atkor", "Ming bir jon", "Boshsiz odam" hikoyalari*

Abdulla Qahhor — mohir hikoyanavis. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligining rivojida Qahhorning o'rni, hissasi nihoyatda katta. XX asr yangi o'zbek adabiyotida realistik hikoya janrining rivoji, albatta, shu adibning nomi bilan bog'liq.


Adib dunyoga kelib, esini tanib, ilk bor ko'nglida og'ir taassurot qoldirgan narsa — hayotda keng tarqalgan tengsizlik, mutelik, fikrlashdan mahrumlik, qullik psixologiyasidir. Yozuvchining ilk muvaffaqiyatli chiqqan hikoyasi „Boshsiz odam“dayoq mustaqil fikrlashdan mahrum, mute bir kimsaning hajviy xarakteri yaratilgan. Shundan keyin yozuvchi butun ijodi davomida bu toifa nomustaqlil, mute odamlar obraziga takror- takror murojaat etadi. Har gal bu ijtimoiy illatning qandaydir yangi bir qirrasini ochadi.

„Bemor“dagi Sotiboldining boshiga tushgan kulfat — og'ir kasal yotgan xotini dardiga davo izlab yelib-yugirishlari, bu soddadil odamning omonat dalda, maslahatlarga umid bog'lab yanada xarob, nochor holga tushishi;

„O'g'ri“dagi jabrdiyda cholning najot kutib mansabdorlar huzurida dovdirab, dildirab turishlari, himmat o'rniga tahqirlanishi, kamsitish-u xo'rashlarga befarqligi; „O'tmishdan ertaklar“dagi Babarning ro'y bergan falokatlardan gangib, o'zini yo'qotar holga tushishi, o'g'irlikda gumon qilinib, otqorovul yur desa yurib, tur desa turib, o'q uzunganda kiprik qoqmay jovidirashi, siyosat uchun do'konga qamab qo'yganida, ochiq turgan eshikdan chiqib ketmay, qishsovug'ida tarashadek qotishi — mana shunday jabrdiyda, mute, nochor, xo'rangan odamlar qismati bilan tanishganda, ular holiga behad achinasiz. Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi hilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqeasi, real hayotning bir bo'lagi, epizodi bo'lib gavdalanadi; hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. „Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi, — deydi adib. Yozuvchining o'sha hayot hodisalarini o'ziga xos tarzda badiiy idrok etishi, mag'zini chaqib, ulardan xilma-xil

original va teran ma'nolar topishi — kashf etishi hikoyalariga o'ziga xos joziba baxsh etgan.

“Sinkveyn” metodi orqali “San'atkor” hikoyasini tahlil qilish



mumkin. “Boshsiz odam” hikoyasini tahlil qildirishda “Baliq skeleti” metodi judayam qo'l keladi.


“Baliq skeleti” metodi asosida “Boshsiz odam” hikovasi tahlili



U mashhur hikoyanavis sifatida shuhrat qozondi. Jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorda turuvchi hikoyalar, deb baho olgan - „Anor“, „O‘g‘ri“, „Bemor“, „Adabiyot muallimi“, „San’atkor“ kabi asarlari maydonga keldi.

Hikoyalarni tahlil qilishda o'zaro taqqoslashlardan unumli foydalanish o'quvchilar ongida qiyoslash, ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Hikoyalarni o`qish orqali qahramonlarning hayoti, yashash muhitini o`zaro solishtirishadi. Xulosalarini mustaqil sharhlab beradilar. "Venn diagrammasi" orqali "Bemor" va "Ming bir jon" hikoyalarini qiyosiy tahlil qilishadi.

"VENN DIAGRAMMASI" asosida "Ming bir jon" hikoyasi tahlili



Badiiy asarlarni mustaqil o`qish va ularni tahlil qilishda quyidagi jadval dars samaradorligini oshirishda judayam muhim.

“O`tmishdan ertaklar” asari bo‘yicha

Konseptual jadval

Janri	Novella nomi	Qahramonlari	Voqeа yuz bergen joy	Asarda keltirilgan o‘yin yoki marosimlar	Lug‘at



Abdulla Qahhor — realistik hikoyachilikning katta va mohir ustasi. O`zbek hikoyachiligi taraqqiyotida uning hissasi g`oyat katta. Shuni inobatga olgan holda dars jarayonida kitobxonlikni targ`ib qilish, badiiy asar mutoalasiga keng yo`l

ochib berish maqsadida o`quvchilarga turli xil topshiriqlar, jadvallarni berish, ular bilan ishslash ko`nikmasini shakllantirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Qahhor, Anor. Qissa va hikoyalar to‘plami, Toshkent, G‘afur G‘ulom, 2012
2. Abdulla Qahhor , Tanlangan asarlar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1987
3. Qo’shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1984
4. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent, 1999.